




РЕСПУБЛИКА КОНФЕРЕНЦИЯСИ МАТЕРИАЛЛАРИ

ЗАМОНАВИЙ ИЛМ - ФАНЛАР РИВОЖИДА ТАЛАБА - ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ЎРНИ

25 май, 2020 йил

ТОШКЕНТ



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРИЛИГИ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ

ТАДБИРКОРЛАР ВА ИШБИЛАРМОНЛАР ҲАРАКАТИ
ЎЗБЕКИСТОН ЛИБЕРАЛ – ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИ

ЗАМОНАВИЙ ИЛМ-ФАНЛАР РИВОЖИДА ТАЛАБА-ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ЎРНИ

*Республика илмий – амалий онлайн конференция материаллари
(25 май, 2020 йил)*



ТОШКЕНТ – 2020

Ушбу конференция 2020 йил Республикамизда “Илм – маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” давлат дастурида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш ҳамда Ўзбекистонда илгор хорижий таъриба, жаҳон фанининг замонавий ютуқлари, инновацион зоялар, ишланмалар ва технологиялар асосида иқтисодиётнинг барча тармоқлари ва ижтимоий соҳани жадал инновацион ривожлантиришда талаба-ёшларнинг иштирокини ошириш мақсадида, онлайн тарзда ташиқил этилди.

Масъул муҳаррирлар:

Мамадалиева Ноибохон – ЎзР Инновацион ривожланиш вазирлиги бош илмий котиби, филология фанлари доктори, профессор.

Шермухаммедова Нигинахон – ЎзМУ “Фалсафа ва маънавият асослари” кафедраси мудир, фалсафа фанлари доктори, профессор.

Тахрир хайъати:

Закирова Нилуфар – ЎзЛиДеП Олмазор туман Кенгаши аппарат раҳбари.

Рустамова Раънохон – ЎзМУ қошидаги Ибн Сино саломатлик маркази раҳбари.

Кучаров Рамзиддин – ЎзМУ доценти, физика – математика фанлари бўйича фалсафа доктори. (PhD)

Юсубов Жалолиддин – ЎзМУ катта ўқитувчиси, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори. (PhD)

Абдуллаев Бобур – ЎзМУ ўқитувчиси.

Юлдашев Серобжон – ФарДУ ўқитувчиси.

Техник муҳаррирлар:

Шукуров Акмал – ЎзМУ магистранти.

Усманов Абдумўмин – ЎзМУ талабаси.

- *Тўпламга киритилган маълумотлар учун муаллифлар масъулдир.*

birmuhim narsa borki, uning sahifalari hech qachon tugallanmaydi. Har doim uningsahifalarini yangi o'simlik turlari va hayvon zotlari to'ldirib boradi. Zero, Qizil Kitob - bu hujjat bo'lib, u insonning vijdonidir. Chunkihar qaysi millat butun dunyo oldida o'zining tabiat boyliklaridan asrash ma'suliyatini olgan.

Darhaqiqat, qadimgi sharq an'anasiga ko'ra Vatan, uning tabiiy boyliklari, garchi "Qizil Kitob" ga kirmagan bo'lsa-da, nihoyatda muqaddas sanalgan "Qadim zamonlarda ota-bobolarimiz olis safarga otlansalar bir siqim tuproqni bellariga tugib ketishgan. Askar yigit jangga ketayotganda xotini yoki mahbubasi unga butun nonning bir chetini tishlatgan va bu non yigit qaytmaguncha asralgan" deya yozgandi Chingiz Aytmatov. Chunki xalqda kimning rizq-nasibasi uyida qolgan bo'lsa, u albatta uyiga sog'-salomatqaytadi, degan umid bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi ajdodlarimiz o'zlaridan tabiatni e'zozlash, uning jamiki boyliklaridan oqilona foydalanish, uning nobud bo'lishiga yo'l qo'ymaslik haqida umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan meros qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Biologiya 10-sinf (2017, J. Tolipova; M. Umaraliyev)
2. <https://gulxan.uz> sayti
3. <https://kitoblardunyosiuz> sayti

MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI

*Avazov N.R.
TDIU talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda investitsiyalarning ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy holati va iqtisodiyotga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari maqolada mamlakatda investitsion faollikni oshirish va buning asosida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlari: *makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, investitsiya, investitsion muhit, investitsion jazibadorlik, investitsion faollik.*

Annotation: *This article analyzes the role of investment in ensuring macroeconomic stability. The article also discusses the macroeconomic situation in the Uzbekistan's economy and the volume of investments in the economy. The article also contains proposals to increase investment activity in the country and, based on this, to ensure macroeconomic stability.*

Keywords: *macroeconomic stability, economic growth, investment, investment climate, investment attractiveness, investment activity.*

Аннотация: В данной статье анализируется роль инвестиций в обеспечении макроэкономической стабильности. В статье также рассматриваются макроэкономическая ситуация в экономике Узбекистана и объем инвестиций в экономику. В статье также содержатся предложения по повышению инвестиционной активности в стране и, исходя из этого, по обеспечению макроэкономической стабильности.

Ключевые слова: макроэкономическая стабильность, экономический рост, инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, инвестиционная активность.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'p omillar ta'sir etadi. Bu omillar ichida investitsiyalar eng muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni iqtisodiyotning rivojlanishiga investitsiyalar o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Iqtisodiyotda investitsiyalar hajmi oshib borishi bilan bunga parallel ravishda iqtisodiyot ham rivojlanib boradi. Bundan tashqari investitsiyalar mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga egadir. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlanishi bu mamlakatda iqtisodiyot jadal rivojlanayotganidan darak beradi. Umuman olganda investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Investitsiyalar — iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lib, asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish maqsadida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, chet el yuridik va jismoniy shaxslari yoki davlat tomonidan qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar va ularga bo'lgan huquqlar hamda mavjud jamg'arilgan kapitaldan kelajakda foyda olish maqsadida amalga oshirilgan kapital qo'yilmalaridir[1]».

Investitsiyalarni ham bir nechta turlari mavjud bo'lib, ulardan xorijiy investitsiyalar alohida ahamiyotga ega. Chunki ichki investitsiyalar bu mamlakatda mavjud bo'lgan kapitalning mamlakat ichida aylanishini bildirsa, xorijiy investitsiyalar bu mamlakatga chetda qo'shimcha kapital kirib kelishini bildiradi. Shuning uchun ham xorijiy investitsiyalar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etib keladi.

Makroiqtisodiy barqarorlik mamlakat iqtisodiy o'sishni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlik inflatsiyaning past darajada bo'lgan va real almashuv kursi raqobatlasha oladigan darajada bir maromda bo'lgan holatni anglatadi[2].

Makroiqtisodiy barqarorlik - deganda mamlakatda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: yalpi ichki mahsulotning real o'sishi, inflatsiya, valyuta kursi, ishsizlik darajasi, to'lov balansi va boshqalarning muvozanati buzilmasdan iqtisodiyot barqaror holda rivojlanishi tushiniladi[3].

Makroiqtisodiy barqarorlik mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirishini hamda mamlakatda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlanganligini ifodalaydi hamda makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy belgilari quyidagilarda ko'rinadi:

- ✚ daromadlar taqsimlanishida muammolar yo'qligi;
- ✚ barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga qayd etilganligi;

✚ mamlakatda to'la bandlikni ta'minlanganligi ya'ni ishsizlik minimal miqdorda ekanligi;

✚ ichki narxlarning barqarorligi (inflatsiya darajasi yuqori emasligi);

✚ baquvvat to'lov balansining mavjudligi;


✚ davlat budjeti kamomadi YaIM ga nisbatan me'yorda ekanligi;

✚ barqaror valyuta almashinuv kursi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, investitsiyalar salmog'ining oshishi bu mamlakatda ishlab chiqarish salohiyatining yaxshilanayotganligidan darak beradi hamda yangi sanoat korxonalarini paydo bo'ladi. Natijada aholi bandligi oshadi va ishsizlik darajasi esa pasayadi. Bu makroiqtisodiy barqarorlik ko'rsatuvchi asosiy belgilardan biri bo'ladi. Aholi bandligining oshishi esa aholi daromadlarining ko'payishiga olib keladi. Aholi daromadlarining oshishi esa iqtisodiy o'sishga yetaklovchi asosiy vosita hisoblanadi. Investitsiyalar asosida mamlakat eksport salohiyati rivojlanadi ekan, u mamlakat iqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat eksport salohiyatining yaxshilanishi mamlakatda baquvvat to'lov balansining shakllanishiga olib keladi hamda bu barqaror valyuta almashinuv kursining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda investitsiyalar hajmini oshirishga qaratilgan islohatlar natijasida yillar davomida barqaror iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari kuzatilib kelmoqda (1-rasm).

2016-2019 yillarda YaIM dinamikasi (foizda)




1-rasm. 2016-2019 yillarda YaIM dinamikasi (foizda)

Manba: www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2016-2019 yillarda YaIM dinamikasiga e'tibor qaratilsa, bu davrda YaIM ning muttasil o'sib borganini kuzatish mumkin. YaIM dinamikasida, 2016-yilda 107,8 % o'sishni, 2017-yilda 105,3 % o'sishni, 2018-yilda 105,1 % o'sishni, 2019-yilda esa 105,6 % o'sishni tashkil qilgan. YaIM dinamikasidan ko'rish mumkin-ki, tahlil qilinayotgan davrda barqaror iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari qayd etilgan va bu mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanayotganligidan dalolat beradi.

Tahlil qilinayotgan davrda mamlakatda investitsiyalar ko'payishi dinamikasiga e'tibor qaratilsa, unda quyidagi holatni kuzatish mumkin (2-rasm).

2016-2019 yillarda asosiy kapitalga investitsiyalarning dinamikasi (foizda)



2-rasm. **2016-2019 yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi (foizda)**

Manba: www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tahlil qilinayotgan davrda (2016-2019 yillar oralig'i) asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlariga e'tibor qaratadigan bo'lsa, bu davrda 7 % dan kam bo'lmagan tarzda o'sish sur'atlariga erishilgan. Eng yuqori ko'rsatkich 2019-yilda erishilgan ya'ni 2019-yilda 133,9 % ni tashkil qilgan. So'nggi yillarda o'sish sur'atlari oshib bormoqda. Ayniqsa 2019-yilda 189,9 trln. so'm (dollar ekvivalentda 21,5 mlrd. AQSh doll.) yoki 2018-yilga nisbatan 133,9 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilgan.

2019-yilda YaIMga nisbatan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 37,1 % ni tashkil etib, 2018-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,5 punktga ko'paygan. Mazkur ko'rsatkich 2017-yilda - 23,9 % ni hamda 2018-yilda - 30,6 % ni tashkil etgan.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida iqtisodiyotda investitsiyalarning hajmi oshib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa o'z navbatida mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ijobiy ta'sir qilib kelmoqda.

Iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarni salmog'ini oshirish asosida makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga qaratilgan quyidagi takliflarni amaliyotga qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- investorlarga qulay investitsion muhitni yaratib berishga qartilgan chora tadbirlarni yanada kuchaytirish hamda buning natijasida mamlakatda qulay ishbilarmolik muhitini shakllantirishni yanada yaxshilash;
- iqtisodiyotga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib kiruvchi investorlarga imtiyozlarni yanada ko'paytirish va ularni qo'llab-quvvatlashni yanada yaxshilash;
- mamlakat investitsion jozibadorligini yanada oshirish.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkin-ki, investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotni rivojlantiruvchi hamda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalar hajmini oshirish eng muhim dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi. Investitsiyalarning hajmi oshishi bu yangi korxonalarining qurilishi, mavjudlarining modernizatsiya qilinishi, yangi mahsulot turlarining paydo bo'lishi, raqobatni kuchayishidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda investitsiyalarning mamlakat makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ahamiyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov N.M., Avazov N.R. «O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari»: Ilmiy-ommabop risola. - T.: TDIU, 2019 y. 104 b.
2. Berkinov B.B., Mamatova F.X. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari. Ilmiy-ommabop risola. - T.: TDIU, 2011 y.
3. Abulqosimov X.P. va boshqalar. Davlatning makroiqtisodiy siyosati. T.:Akademiya. 2007 y.
4. Michael F. Bleaney. «Macroeconomic stability, investment and growth in developing countries». Journal of Development Economics.
5. Mustafakulov Sh.I., «Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot». Monografiya - T.: «Ma'naviyat» O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. 2017-y. 328 b.
6. Hui-Ching Hsieh, Sofia Boarelli, Thi Huyen Chi Vu. «The effects of economic policy uncertainty on outward foreign direct investment». International Review of Economics and Finance 64 (2019) 377-392. journal homepage: www.elsevier.com/locate/iref.
7. N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013).
8. www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
9. www.tsue.uz TDIU talabasi rasmiy sayti.

MAKRO VA MIKRO ELEMENTLARGA BOY BO'LGAN TO'PLAM YARATISH MAQSADIDA XOMASHYO SIFATIDA FARG'ONA VODIYSI O'SIMLIKLARIDAN FOYDALANISH

*Axmedova O.A.
FarDU magistranti*

Oxirgi 10 yil ichida butun dunyobo'yicha, shuningdek Farg'ona vodiysida dorivor o'simliklar bilan davolash juda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Farg'ona vodiysi shunday dorivor o'simliklarga boydir. 1.32. Vodiy o'simliklari

MUNDARIJA

1-SHO'BA:

ANIQ VA TABIIY FANLAR TIZIMINING MAVJUD MUAMMOLARIGA YANGICHA YONDASHUVLAR HAMDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLINING ILG'OR TENDENSIYALARI.

1.	Abdig'aniyev R. I.	Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda iqtisodiy ta'limotlar tarixini o'rganishning ahamiyati	4
2.	Abdilahadov D.V.	Ishlab chikarish sanoatida qo'llanadigan zaxarli kimyoviy birikmalarning inson organizmiga ta'siridan ogoxlantirishda tibbiyot, ekologiya, kimyo va texnika fanlarini birgalikdagi vazifalari	6
3.	Abduqodirov M.A.	Farg'ona viloyatida o'suvchi machin (amaranta) o'simligining kimyoviy tarkibini tadqiq qilish	9
4.	Abdurasulov J.A.	Egri chiziq yoy uzunligini hisoblash formulalari yordamida ba'zi tengsizliklarni isbotlash	12
5.	Eshmurodov X.E., Abduraxmonov S.T.	Zamonaviy litiy-ionli batareyalar uchun litiy birikmalarini ishlab chiqarish texnologiyasi	15
6.	Abraev B.X., Boysotova Yu.I.	To'rt noma'lumli ikkita chizikli tenglamalar sistemasining tub sonlardagi yechimlari haqida.	18
7.	Ahmedova M.O.	Qizil kitobni sahifalari tugallanadimi	23
8.	Avazov N.R.	Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda investitsiyalarning ahamiyati	24
9.	Axmedova O.A.	Makro va mikroelementlarga boy bo'lgan to'plam yaratish maqsadida xomashyo sifatida farg'ona vodiysi o'simliklaridan foydalanish	28
10.	Boboyeva I.O'.	O'quvchilarga kimyo darslarini tushuntirishda «Yaponcha boshqotirma» ning ahamiyati	32
11.	Ergashev Sh.T.	Bugungi globallashuv sharoiti va unda iqtisodiyot nazariyasi fanining dolzarbligi masalalari	34
12.	G'ayratova G.I.	O'zbekiston ixtiofaunasi.	37
13.	Gadoyboyeva N.S.	Favqulotda holatlarda tibbiyot xizmatlarini taqdim etish masalalari	41
14.	Xamrayev A.B., Haydarov O.D.	Chizikli bo'lmagan tenglamalarni Nyuton usuli bilan amaliy paketlar yordamida taqribiy yechish	44
15.	Ibragimov M.I.	Metallarga bosim va termik ishlov berishning asosiy usullari.	47
16.	Ibragimov Sh.	O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalarining huquqiy tartiboti: imtiyoz va preferensiyalar	49
17.	Ibragimova M.A.	Xorazmiy asarlarining matematika fanini rivojlantirishdagi va o'quvchilar aqliy faoliyatini o'stirishdagi o'rni.	54
18.	Ibrohimova G.A.	Toshkent botanika bog'i sharoitiga introduksiya qilingan taxus baccata l. ning morfologiyasi	55
19.	Ilxomidinova Z.R.	Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bilimlar va axborotlashtirishning o'zaro uyg'unlashuvi	58
20.	Isaeva L.B., Hayitova U.	Sug'orish texnologiyasini takomillashtirish muammolari	60
21.	Ixtiyorov Sh.I.	Bolalar orasida temir tanqisligi anemiyasining tarqalishi	63
22.	Jabberganova S.	Ish bilan band bo'lmagan aholini yengil sanoat tizimiga jalb qilish va shu orqali bu sohani iqtisodiyotda tutgan o'rinini mustahkamlash.	66
23.	Jabborov Z.B.	Zamonaviy xalqaro munosabatlarda «Axborot xavfsizligi» transformatsiyasi.	68
24.	Jo'layeva M.	Birinchi sinf matematika darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etishning o'rni va ahamiyati.	72
25.	Karimova X.R.	O'zbekistondagi dorivor o'simlik va daraxt-butalarning ahamiyati	74

ЗАМОНАВИЙ ИЛМ-ФАНЛАР РИВОЖИДА ТАЛАБА-ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ЎРНИ

Республика илмий – амалий онлайн конференция материаллари

ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ – 2020

КОНФЕРЕНЦИЯ ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТА РАСМИЙ КАНАЛИ:

https://t.me/zamonaviy_ilm_fanlar



**Конференция хақида қўшимча маълумотлар билан
қуйидаги ҳаволалар орқали ҳам танишишингиз мумкин:**

1. <https://mininnovation.uz/uz/news/2044>
2. <https://nuu.uz/uzc/press/news/events/ev-cultural/1268>
3. https://vtopoytaxt.uz/jamiyat/news_post/onlajn-konferenciya
4. <http://uchildiz.uz/замонавий-илм-фанлар-ривожи>

@Мурожсаат учун: https://t.me/usmanov_uz